

GASTRONOMIK BIRLIKLAR ASOSIDA METAFORIK MA’NOLARNING SHAKLLANISHI: MEVA VA SABZAVOTLAR MISOLIDA

Fayzullayeva Madina Qahramon qizi

*Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti tayanch doktoranti Toshkent, O‘zbekiston*

Tel: +998909057174

fayzulaevamadina@970gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy tilida meva va sabzavot nomlari ishtirok etgan gastronomik metaforalar kognitiv va lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot meva-sabzavot birliklarining konseptual domen sifatidagi o‘rni, ularning manba domen (源域 yuányù) sifatida maqsad domenlariga (目标域 mùbiāoyù) proyeksiya qilinish jarayonlari, shuningdek semantik kengayish va metaforik xaritalanish mexanizmlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: gastronomik metafora, manba domen, maqsad domen, mevalar, sabzavotlar.

Gastronomik metaforalar tilning eng qadimiy va boy majoziy qatlamlaridan biri bo‘lib, ular insonning sensor-perseptiv tajribasi bilan bevosita bog‘langanligi sababli yuqori darajada obrazlilik va konseptual aniqlik yaratadi. Meva va sabzavot obrazlari xitoy milliy konseptosferasida o‘ziga xos ramziy yuklamaga ega bo‘lib, ular orqali shakllanadigan metaforik xaritalash jarayoni til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Masalan, 苦瓜脸 *kǔguā liǎn* achchiq qovun yuz (yuzida nordon ifoda, ko‘p g‘am chekkan, melanxolik ifoda), 瓜子脸 *guāzǐ liǎn* qovun urug‘ yuzli (oval yuz), 樱桃嘴 *yīngtáo zuǐ* olcha og‘iz (chiroyli lablarga ishora), 杏仁眼 *xìngrén yǎn* bodom ko‘zlar (chiroyli ko‘zlarga ishora), 桃李 *táolǐ* shaftoli va olxo‘ri (o‘stirilgan yosh avlod, yetishtirilgan shogird; keyinchalik go‘zallik ma’nosida ham ishlatilgan), 软柿子 *ruǎn shìzi* mayin xurmo (zaif, kuchsiz inson), 硕果 *shuòguǒ* katta meva (katta yutuq, natija, noyob va yagona inson yoki narsa), 苦果 *kǔguǒ* achchiq meva (yomon oqibatlar, karma holatiga javob berish), 酸葡萄 *suān pútáo* nordon uzum (qilolmaydigan ishi uchun o‘ziga tasalli berish), 矮冬瓜 *ǎi dōngguā* mitti qovoq (kichkina odamlar), 开心果 *kāixīn guǒ* pista (quvonch keltiradigan, qiziqarli inson), 香蕉人 *xiāngjiāorén* banan odam (o‘z tilini yaxshi bilmaydigan chet ellik xitoyliklar, kamsituvchi ma’noga ega), 摘桃子 *zhāi táozi* shaftoli termoq (hech qanday ish

qilmasdan, muvaffaqiyat mevasini terish), 空心萝卜 *kōngxīn luóbo* ichi bo‘sh sholg‘om (foydasiz va iste’dodsiz odam), 小萝卜头 *xiǎo luóbo tóu* kichkina sholg‘om boshi (erkalash ma’nosida), 花心萝卜 *huāxīn luóbo* sholg‘om guli yuragi (beqaror, o‘ynoqi, sevgida o‘zgaruvchan inson), 泡蘑菇 *pào mógu* qo‘ziqorinni ho‘llash (vaqtni to‘xtatib turish).

“到底是怎么了? 我没时间跟你‘泡蘑菇’, 快说。” (“当代报刊” 1996-11-02, 08版)

“Nima bo‘lyapti? Men siz bilan ‘qo‘ziqorin ho‘llab o‘tirishga’ vaqtim yo‘q, tezroq ayting.”

“泡蘑菇” *pào mógu* qo‘ziqorinni ho‘llash metaforasining asl ma’nosi qo‘ziqorin pishirishdan avval uni suvga solib bir muddat kutish jarayonini anglatadi. Ushbu jarayon vaqt talab qilgani sababli, metaforik tarzda vaqtni cho‘zish, keraksiz tarzda suhbatni cho‘zib yuborish, yoki asosiy masaladan qochib, bekorchi gap bilan shug‘ullanish ma’nolarida qo‘llaniladi. Shunday qilib, mazkur metafora nutqda biror kishining masalani yechish o‘rniga vaqtni bekorga sarflashi yoki ortiqcha cho‘zib yuborishini kinoyali tarzda ifodalaydi.

“另外, 相对于美英, 意大利算是个‘软柿子’, 而且贝卢斯科尼领导的执政联盟在欧洲议会选举和地方选举中接连失利已经导致意政局混乱。” (“新华社” 2004-07-05, 08版)

“Bundan tashqari, AQSh va Buyuk Britaniya bilan solishtirganda Italiya ‘yumshoq xurmo’ sifatida baholanadi. Silvio Berluskoni boshchiligidagi hukmron koalitsiyaning Yevropa Parlamenti va mahalliy saylovlarda ketma-ket mag‘lubiyatga uchrashi esa Italiya siyosiy sahnasida beqarorlikni yuzaga keltirdi.”

“软柿子” *ruǎn shìzi* — so‘zma-so‘z ma’noda “yumshoq xurmo” bo‘lib, pishgan va bosilganda osongina eziladigan meva tasvirini beradi. Metaforik ma’noda esa oson nishon, zaif raqib, o‘zini himoya qila olmaydigan tomon kabi ma’nolarni anglatadi. Metaforaning mazmuniy asosida fizik xususiyat — xurmoning yumshoqligi va oson eziluvchanligi turadi. Real obyektning bu xususiyati kognitiv ma’no jihatdan ijtimoiy-siyosiy subyektga ko‘chiriladi, ya’ni yumshoq xurmo eng kichik bosimda ham shaklini yo‘qotsa, siyosiy, iqtisodiy yoki harbiy jihatdan zaif tomon ham tashqi ta’sirga tez beriluvchi, himoyasiz nishon sifatida qabul qilinadi.

“其实, 人类在很久以前就知道‘种瓜得瓜, 种豆得豆’这一自然现象, 但并不清楚这种现象的科学道理, 100多年前, 遗传学家才把它归结为遗传现象, 并提出基因的概念。” (“人民日报” 2000-07-05, 11版)

“Darhaqiqat, odamlar ‘qovun eksang qovun o‘rasan, loviya eksang loviya o‘rasan’ degan tabiat hodisasini qadimdan bilishgan, ammo bu hodisaning ilmiy sababini

bilishmagan. Bundan atigi 100 yil muqaddam genetiklar buni irsiy hodisaga bog‘lab, genlar tushunchasini ilgari surdilar.”

“种瓜得瓜, 种豆得豆” *zhong guā dé guā, zhǒng dòu dé dòu* — xitoy tilidagi eng qadimiy va eng barqaror gastronomik-metaforik birliklardan biri bo‘lib, uning so‘zma-so‘z ma’nosi “qovun eksang — qovun o‘rasan, loviya eksang — loviya o‘rasan” degan biologik kuzatuvga tayanadi. Ushbu ibora qadimdan qishloq xo‘jaligi amaliy tajribasidan kelib chiqqan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan ijtimoiy, axloqiy va kognitiv ma’nolarga ega bo‘lgan keng konseptual metaforaga aylangan.

“种瓜得瓜, 种豆得豆” *zhong guā dé guā, zhǒng dòu dé dòu* gastronomik metaforasi oddiy qishloq xo‘jaligi jarayonidan kelib chiqsada, u xitoy madaniy kodida sabab-oqibat munosabatining universal tamoyilini ifodalovchi kuchli kognitiv model darajasiga ko‘tarilgan. Metafora inson harakati va uning oqibatlari o‘rtasida izchil aloqadorlik mavjudligini ta’kidlaydi va shu orqali axloqiy xulq-atvor, mehnatsevarlik va mas’uliyat kabi qadriyatlarni mustahkamlaydi.

“今天的决赛, 俄罗斯队也一如 ‘霜打的茄子’, 蔫头端脑. 单杠比赛脱杠掉下, 自由操跟头翻出界, 就连鞍马这样的项目俄罗斯也有队员掉下来.” (“新华社” 2001-11-22, 9 版)

“Bugungi final bahsida Rossiya terma jamoasi xuddi ‘sovuq urgan baqlajondek’ so‘lg‘in va holdan toygan ko‘rinishda edi. Turnik mashqida sportchi turnikdan tushib ketdi, erkin mashqda salto harakati belgilangan maydon tashqarisiga chiqib ketdi, hatto ot mashqi kabi texnik jihatdan murakkab bo‘lgan bo‘limda ham rossiyalik gimnastikachilar yiqilib tushdi.”

“霜打的茄子” *shuāng dǎ de qiézi* — “sovuq urgan baqlajon” metaforasi kognitiv jihatdan holsizlanish, ruhan tushkunlikka tushish, faoliyatga bo‘lgan kuch va ishtiyoqning pasayishi kabi holatlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Sifatlashning manba domeni — sovuq urib, yumshab, so‘lib qolgan baqlajonning fizik holati; maqsad domeni — insonning ruhiy yoki jismoniy holda charchashi, motivatsiya yo‘qligi. Ushbu metafora xitoy tilida o‘z kuchini yo‘qotgan, kuchsiz, faoliyatsiz yoki ruhiy bosim ostida qolgan shaxs holatini ifodalashda barqaror qo‘llaniladigan obrazli birlikdir.

Xitoy gastronomik metaforalarining manba domenlari faqat lingvistik vosita emas, balki xalqning madaniy dunyoqarashi va hayot tajribasini ifodalovchi muhim element hisoblanadi. Bu metaforalar orqali xitoy xalqining ijtimoiy hayotga, inson xarakteriga, siyosiy-iqtisodiy jarayonga bo‘lgan qarashlari yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lakoff G. Metaphors We Live By / George Lakoff, Mark Johnson. – Chicago : Chicago University Press, 1980. – 242 p.
2. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction / Zoltán Kövecses. – N.Y. : Oxford University Press, 2002. – 285 p.
3. 金爱情. 汉韩饮食惯用语的隐喻和转喻对比研究. - 浙江大学, 2018年. - 54 页.